

**MADANIY KODLAR VA RAMZLAR ORQALI SIYOSIY
SAFARBARLIK****Shamsiddin Rahmonov .***O`zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti**Siyosatshunoslik yo`nalishi 1-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqola madaniy kodlar va ramzlarning siyosiy safarbarlik jarayonidagi muhim o`rnini o`rganishga qaratilgan. Madaniy kodlar va ramzlar jamiyatning ma'naviy va madaniy asoslarini ifodalovchi belgilar sifatida, siyosiy harakatlarni shakllantirish va xalqni bir maqsad atrofida birlashtirishda kuchli vosita hisoblanadi. Maqolada milliy bayroqlar, timsollar va tana harakatlarining siyosiy safarbarlikda qanday qo'llanilishi va ular orqali qanday motivatsiya yaratilishi tahlil qilinadi. Shuningdek, madaniy kodlar va ramzlarning siyosiy kommunikatsiya va identifikatsiyadagi roli, ularning jamiyatda siyosiy ongni shakllantirishdagi ahamiyati misollar va nazariy tushunchalar yordamida bayon etiladi. Ushbu tahlil siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik va ijtimoiy psixologiya sohalariga oid bilimlarni integratsiyalash orqali siyosiy safarbarlik jarayonini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Abstract: This article is dedicated to studying the significant role of cultural codes and symbols in the process of political mobilization. As representations of a society's spiritual and cultural foundations, cultural codes and symbols serve as powerful tools in shaping political movements and uniting people around a common goal. The article analyzes how national flags, emblems, and body gestures are used in political mobilization and how they create motivation. It also discusses the role of cultural codes and symbols in political communication and identification, as well as their importance in shaping political consciousness in society, supported by examples and theoretical concepts. This analysis, through the integration of knowledge from political science, cultural studies, and social psychology, provides a deeper understanding of the political mobilization process.



Аннотация: Данная статья посвящена изучению важной роли культурных кодов и символов в процессе политической мобилизации. Культурные коды и символы, как отражение духовных и культурных основ общества, служат мощным инструментом в формировании политических движений и объединении народа вокруг общей цели. В статье анализируется использование национальных флагов, эмблем и телесных жестов в политической мобилизации, а также то, каким образом они создают мотивацию. Кроме того, рассматривается роль культурных кодов и символов в политической коммуникации и идентификации, их значение в формировании политического сознания в обществе на основе примеров и теоретических концепций. Данный анализ, путем интеграции знаний из политологии, культурологии и социальной психологии, позволяет глубже понять процесс политической мобилизации.

**Kalit so`zlar :** Ramzlar, kodlar, siyosiy safarbarlik, siyosiy kommunikatsiya, jamiyatni birlashtirish va ta`sir o`tkazish.

Keywords: Symbols, codes, political mobilization, political communication, unifying and influencing society.

Ключевые слова: Символы, коды, политическая мобилизация, политическая коммуникация, объединение и воздействие на общество.

Zamonaviy siyosiy jarayonlarda jamiyatni birlashtirish va umumiy maqsadlar yo`lida safarbar qilish muhim vazifalardan biridir. Siyosiy safarbarlik jarayoni aholining siyosiy ongini shakllantirish, ularni ma`lum g`oya yoki harakatga yo`naltirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda madaniy kodlar va ramzlar markaziy o`rin tutadi. Madaniy kodlar – bu jamiyatda qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy tajribalarning ma`nosini o`zida mujassam etgan belgilar tizimi bo`lib, ular orqali jamoatchilikda umumiy tushuncha va identifikatsiya yuzaga keladi. Ramzlar esa madaniy kodlarning ko`rinishlari bo`lib, ular siyosiy maqsadlarni yetkazishda va odamlarning e`tiborini jalb qilishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.



Milliy bayroqlar, madhiyalar, tarixiy qahramonlar va diniy belgilar kabi ramzlar jamiyatni birlashtirish va siyosiy harakatlarga rag'batlantirishda o'ziga xos kuchga ega. Shu bois madaniy kodlar va ramzlar siyosiy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylangan va ularni chuqur o'rganish siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik hamda ijtimoiy psixologiya sohalari uchun katta ahamiyatga ega. Madaniy kodlar – bu jamiyat yoki guruh tomonidan qabul qilingan, o'ziga xos ma'no va qiymatga ega bo'lgan belgilar, xatti-harakatlar, urf-odatlar va qoidalar tizimidir. Ular insonlarning ijtimoiy hayotini tartibga soladi, jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlaydi va madaniy identifikatsiyani shakllantiradi. Madaniy kodlar ko'pincha ko'zga ko'rinmas, ammo ular jamiyatda keng tarqalgan va qattiq mustahkamlangan qoidalar sifatida mavjud. Bu kodlar yordamida odamlar o'z harakatlarini boshqaradi, atrofdagilar bilan qanday munosabatda bo'lishni biladi.

Madaniy kodlar misollari:

1. Salomlashish odatlari: Turli madaniyatlarda salomlashish usullari farq qiladi – qo'l berish, bosh egish, quchoqlash. Bu xatti-harakatlar madaniy kod hisoblanadi.
2. Bayramlar va tantanalar: Milliy bayramlar, diniy marosimlar, oilaviy an'analar madaniy kodlarni tashkil qiladi. Masalan, Navro'z bayramida o'tgan an'analar yoki Yangi yilga tayyorlanish odatlari.
3. Kiyim-kechak qoidalari: Ma'lum joylarda kiyinish madaniyati, diniy kiyimlar yoki ijtimoiy maqomga mos kiyimlar madaniy kod hisoblanadi.
4. Ijtimoiy rollar: Masalan, ota-onaga hurmat ko'rsatish, keksa insonlarga o'rin berish – bu kodlarning jamiyatda mustahkam o'rni bor.
5. Til va nutq uslubi: Tilning o'ziga xos ifodalari, ma'lum so'zlar va iboralar ham madaniy kodlardir.

Siyosiy ramzlar ko'pincha madaniy ramzlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular ma'naviy va tarixiy tajriba asosida shakllanadi. Ramzlar siyosiy kommunikatsiyaning qisqa va aniq ifodasi sifatida xizmat qiladi, chunki murakkab g'oyalarni oddiy ko'rinishda yetkazishga yordam beradi.



Siyosiy ramzlarning xususiyatlari:

Yuqori anglashuvchanlik: Ramz bir qarashda ko'p ma'nolarni o'zida jamlay oladi.

Identifikatsiya vositasi: U guruh yoki davlatga mansubiyatni bildiradi.

Emotsional ta'sir: Ramz odamlarning his-tuyg'ularini uyg'otadi va ularni harakatga chorlaydi.

Qisqa va samarali kommunikatsiya: Ko'p so'zlarni qisqa belgilar orqali ifodalash imkonini beradi.

Tarixiy va madaniy ildizlar: Ramzlar ko'pincha tarixiy voqealar, qadriyatlar yoki afsonalarga asoslangan.

Siyosiy ramzlar misollari:

1. Milliy bayroq: Har bir davlatning o'ziga xos bayrog'i bor. Bayroq millatning birligini, suverenitetini va tarixini ramziy ifodalaydi. Masalan, O'zbekiston bayrog'i — mustaqillik va milliy o'zlik ramzi.

2. Davlat madhiyasi: Davlat madhiyalari milliy g'urur va birlikni uyg'otuvchi siyosiy ramzlardir.

3. Tarixiy shaxslar va qahramonlar obrazlari: Milliy ozodlik kurashchilari, davlat asoschilari (masalan, Amir Temur) ramziy xarakterga ega.

4. Diniy ramzlar: Ko'plab mamlakatlarda diniy ramzlar (masalan, xristianlikda xoch, islomda yarim oy) siyosiy identifikatsiyaga ta'sir qiladi.

5. Partiyalar ramzlari: Siyosiy partiyalar o'z ramzlari orqali o'z g'oyalarini va yo'nalishlarini bildiradi. Masalan, AQShda Demokratlar partiyasining eshagi, Respublika partiyasining filli ramzi.

6. Qizil rang va yulduz: Kommunistik va sotsialistik harakatlarda ishlatiladigan ramzlar, masalan, Sovet Ittifoqi bayrog'idagi qizil rang va besh burchakli yulduz.

7. Protest belgilar: Ochiq qo'l, tinchlik belgisi, qizil kartochka kabi ramzlar ijtimoiy yoki siyosiy harakatlarda keng qo'llaniladi.

Siyosiy ramzlarning siyosiy safarbarlikdagi roli:

Siyosiy ramzlar odamlarni birlashtiradi, ularning siyosiy faolligini oshiradi va umumiy maqsad sari safarbar qiladi. Ular murakkab siyosiy kontseptsionalarni oddiy



va oson tushunarli shaklga keltiradi, shuning uchun siyosiy liderlar va harakatlar ularni faol ishlatadi.

Misol tariqasida sovetlarda ishlatilgan ramz:

Qizil bayroq — Sovet Ittifoqining asosiy ramzlaridan biri bo'lib, kommunistik g'oyalarni, ishchilar va dehqonlarning birligini, inqilobiy ruhni ifodalardi. Qizil rang o'z-o'zidan qahramonlik, qurbonlik va kelajak uchun kurashni anglatardi. Beshburchak yulduz — Sovet ramzologiyasida muhim o'rin tutar, u to'rt qit'adagi ishchilar va dehqonlarning birdamligini, kommunizmning kengayishini bildirardi.

Yana bir yorqin misol sifatida 3-reyxning quyidagi madaniy kodini keltirishimiz mumkin: Gitlercha salomlashish. Ya'ni bu — to'g'rilangan, yuqoriga ko'tarilgan qo'l bilan amalga oshiriladigan maxsus harakat edi. U natsistlar uchun sodiqlik va birligini ifodalovchi ramziy harakat bo'lib, partiya a'zolari va oddiy fuqarolar uni siyosiy sadoqat va ijtimoiy intizom belgisi sifatida bajarishlari talab qilingan. Bu harakat nafaqat siyosiy, balki madaniy kod sifatida ham qaraladi, chunki u jamiyatda o'zaro bog'lanish va guruh identifikatsiyasini mustahkamlash uchun ishlatilgan.

Endi Sovet Ittifoqi va 3-Reyxda madaniy kodlar va ramzlar orqali aholi ongiga qanday ta'sir ko'rsatilganini tahlil qilamiz.

1) Sovet Ittifoqida ta'sir

a) Ideologik birlashuv:

Madaniy kodlar (masalan, ishchi va dehqon birligi, "Lenin — bizning otamiz", "kommunizm — kelajak") orqali fuqarolar yagona mafkuraga ishonishga undaldi.

b) Ramzlar orqali hissiy ta'sir:

Qizil bayroq, bolg'a va o'roq belgisi, Leninning portreti va shiorlar fuqarolarga ruhiy yuksaklik, fidoyilik va sadoqat hissini uyg'otdi.

c) Tarbiya va nazorat vositasi:

Har bir maktab, zavod va qo'shma tashkilotda bu ramzlar muntazam ko'rsatilishi orqali odamlar ongli va ongsiz tarzda davlat mafkurasiga moslashdi.



2) 3-Reyx (Natsist Germaniyasi)da ta'sir

a) Irqiy ustunlikni singdirish:

Swastika belgisi, “aryancha ideal” tasvirlari, fashistik estetikadagi plakatlar orqali fuqarolar “biz boshqalar bilan teng emasmiz” degan g‘oyaga ishon tirildi.

b) Jamiyat ustidan nazorat:

Natsist salomi, Hitlerning nutqlari va ommaviy marshlar orqali aholiga “sodiqlik – majburiy” degan ruh singdirildi. Ramzlar orqali mustahkam ierarxiya yaratilgan.

c) Qo‘rquv va motivatsiyaning uyg‘unligi:

Kod va ramzlar fuqarolarga nafaqat sadoqatni, balki qo‘rqinchli jazoni eslatar edi. Shu yo‘l bilan siyosiy safarbarlik davomli bo‘ldi.

Hozirda ham kod va ramzlardan keng foydalaniladi. Misol sifatida: Kod sifatida ishlatiladigan ibora: “Black Lives Matter” (Qora tanlilarning hayoti muhim). Bu ibora irqchilikka qarshi kurashda yagona pozitsiyani bildiradi va birlashtiruvchi kuch vazifasini o‘taydi.

Ramz: Odatda qora fon ustiga oppoq harflarda yozilgan “#BlackLivesMatter” yoki tizzalab turgan namoyishchilar surati bilan ifodalanadi.

Siyosiy safarbarlikdagi roli:

BLM harakati AQShda va butun dunyoda millionlab odamlarni namoyishlar, saylovlar va fuqarolik faolligiga safarbar etdi.

Tahlil sifatida Madaniy kodlar va siyosiy ramzlar tarixiy va zamonaviy siyosiy safarbarlik jarayonlarida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular fuqarolarning siyosiy ongini shakllantirish, jamiyatda birdamlik muhitini yaratish hamda ijtimoiy guruhlar o‘rtasida o‘zaro identifikatsiyani kuchaytirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Sovet Ittifoqi va 3-Reyx tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ramzlar va kodlar orqali mafkura singdirish, siyosiy itoatni ta‘minlash va ijtimoiy nazoratni mustahkamlash mumkin bo‘lgan. Nafaqat ijtimoiy adolat talabini, balki keng siyosiy qarashlar tizimini ham ifodalaydi (politsiya islohotlari, tenglik, irqiy birdamlik).

Zamonaviy davrda esa siyosiy safarbarlik yanada murakkab va ko‘p qatlamli shakllarga ega bo‘lib bormoqda. “Black Lives Matter”ning vizual timsollari keng



jamoatchilik ongida o'ziga xos siyosiy pozitsiyalarni ifodalovchi ramzlarga aylangan. Bu kabi kodlar va ramzlar nafaqat hukumatlar, balki fuqaro jamiyatlari, siyosiy faollar va ommaviy axborot vositalari tomonidan ham faol ravishda qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, madaniy kodlar va siyosiy ramzlar orqali ta'sir o'tkazishning ikkiyoqlama — ijobiy va salbiy — jihatlari mavjud. Ulardan biri fuqarolik ongini uyg'otish va ijtimoiy birlikka xizmat qilsa, ikkinchisi — manipulyatsiya va mafkuraviy bosim vositasiga aylanishi mumkin. Demak, siyosiy safarbarlikda ramz va kodlardan foydalanish faqat texnik vosita emas, balki kuchli ideologik mexanizmdir.

Xulosa:

Madaniy kodlar va siyosiy ramzlar siyosiy kommunikatsiyaning muhim elementi bo'lib, ularning jamiyatdagi rolini ortiqcha baholash qiyin. Ular nafaqat guruhlararo birdamlikni ta'minlash, balki jamiyat a'zolarining siyosiy ongini shakllantirish, ularni muayyan mafkuraviy yo'nalishga safarbar etish vazifasini bajaradi. Tarixiy tajribalar — xususan, Sovet Ittifoqi va 3-Reyx kabi avtoritar tuzumlardagi ramzlar siyosati — bu vositalarning qanday darajada kuchli mafkuraviy qurolga aylanishini ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, madaniy kodlar va siyosiy ramzlar siyosiy safarbarlikning eng samarali mexanizmlaridan biri bo'lib, ularning mazmunini tushunish — zamonaviy siyosiy jarayonlarni chuqur anglash uchun muhim shartdir. Ularni ilmiy o'rganish esa siyosiy ong, identitet va jamiyatni boshqarish mexanizmlarini tahlil qilishda yangi ufqlar ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Geertz, C. (1973). The Interpretation of Cultures. Basic Books.
2. Anderson, B. (1991). Imagined Communities. Verso Books.
3. Edelman, M. (1985). Symbolic Uses of Politics. University of Illinois Press.
4. Жамолова, Н.Х. (2020). Сиёсий коммуникация ва сиёсий маданият. – Тошкент: TDIU.
5. Koshkadamov, Z. (2022). Madaniyat va siyosat: o'zaro ta'sir mexanizmlari. – Toshkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.